



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

### NOSTANDART DARSLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING XUSUSIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUV METODIKASI

Turobova Xadicha Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda nostandart darslar asosida integratsion yondashuv metodikasining nazariy-metodik asoslari, amaliy mexanizmlari hamda tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari integratsion va nostandart darslar o'quvchilarning kommunikativ, ijodiy va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** nostandart dars, kompetensiya, integratsion yondashuv, boshlang'ich ta'lim, innovatsion

### ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ СПЕЦИФИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ПОСРЕДСТВОМ НЕСТАНДАРТНЫХ УРОКОВ.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические и методологические основы, практические механизмы и экспериментальные результаты интегрированного подхода к методике обучения, основанного на нестандартных уроках, в формировании личностных компетенций учащихся начальной школы. Результаты исследования показали, что интегрированные и нестандартные уроки эффективны в развитии коммуникативных, творческих и информационно-процессинговых компетенций учащихся.

**Ключевые слова:** нестандартный урок, компетенция, интегративный подход, начальное образование, инновационная методология.

### AN INTEGRATIVE APPROACH TO DEVELOPING SPECIFIC COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH NON-STANDARD LESSONS.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations, practical mechanisms, and experimental results of an integrated approach to teaching methods based on non-standard lessons for developing personal competencies in primary school students. The study results demonstrate that integrated and non-standard lessons are effective in developing students communicative, creative and information-processing competencies.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

**Keywords:** *non-standard lesson, competency, integrative approach, primary education, innovative methodology.*

### KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Shu bois, mazkur bosqichda ta'lim jarayonini nostandart darslar asosida tashkil etish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi va ularning xususiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv masalalari keng yoritilgan. J. Delors rahbarligidagi UNESCO hisobotida ta'limning asosiy vazifasi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash ekanligi qayd etilgan.

P. Perrenoud kompetensiyani bilim, ko'nikma va malakalarning amaliy vaziyatlarda qo'llanilishi sifatida talqin qiladi. O'zbekistonlik olimlar N. Muslimov va D. Sayidahmedovlar kompetensiyaviy yondashuvning milliy ta'lim tizimidagi ahamiyatini asoslab bergan.

Maqolaning asosiy maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarida xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda nostandart darslar asosida integratsion yondashuv metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat.

Maqola yozilishi davomida tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, taqqoslash, tajriba-sinov, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Integratsion yondashuv asosida fanlararo bog'liqlik ta'minlandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, taqqoslash, tajriba-sinov, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Integratsion yondashuv asosida fanlararo bog'liqlik ta'minlandi.

Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktabining 2-3-sinflarida olib borildi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi shakllantirildi.

Tajriba guruhida o'yinli, muammoli va loyiha asosidagi nostandart darslar qo'llanildi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida kommunikativ va ijodiy kompetensiyalar sezilarli darajada oshdi.

Statistik tahlil natijalari metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Nostandart darslar orqali kompetensiyalarni shakllantirish

1-jadval. Tajriba-sinov natijalari

| Ko'rsatkich               | Boshlanish (%) | Yakun (%) | O'sish (%) |
|---------------------------|----------------|-----------|------------|
| Kommunikativ kompetensiya | 45             | 68        | 23         |
| Ijodiy kompetensiya       | 38             | 55        | 17         |
| Past daraja               | 40             | 0         | -40        |



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"



jl-diagramma. Kommunikativ kompetensiyaning o'sish dinamikasi  
XULOSA.

Maqola davomida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nostandart darslar asosida tashkil etilganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida darslarga qiziqishlarini shakllantiribgina qolmay, nostandart darslar asosida tashkil etilgan integratsion yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida xususiy kompetensiyalarni samarali shakllantiradi.

Xususan integratsion yondashuv asosida rejalashtirilgan va o'tkazilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqit qilish, mantiqiy fikrlash hamda tahlil qilish imkonini yaratib beradi.

Ayniqsa, bunday darslar kommunikativ, axborot bilan ishlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi muhim tayanch kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Mazkur metodika amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etiladi bu kabi metodlar orqali dars jarayonining sifati oshishi ta'lim natijalari esa barqarorlashishi hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Delors J. Learning: The Treasure Within. – Paris: UNESCO, 1996. – 286 p., 37–41-b.
2. Perrenoud P. Construire des compétences dès l'école. – Paris: ESF, 1999. – 192 p., 22–29-b.
3. Serikov V.V. Lichnostno-orientirovannoye obrazovaniye. – M.: Logos, 2003. – 256 b., 64–70-b.
4. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b., 112–118-b.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "**

5. Sayidahmedov D. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2016. – 210 b., 89–95-b.
6. O'zbekiston Respublikasi XTV. Boshlang'ich ta'lim DTS. – Toshkent, 2021. – 12–18-b.